



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHIDA AVTOMOBIL YO'LLARINING AHAMIYATI

D.A.Maxmudova – Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

D. X. Abdullayeva – Toshkent davlat transport universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llarining iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi o'rni tahlil qilinadi. Yo'l-transport infratuzilmasining rivojlanishi mamlakat ichki va tashqi savdosini kengaytirish, hududlararo aloqalarni mustahkamlash hamda aholi turmush darajasini oshirishdagi muhim omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Avtomobil yo'llari, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy infratuzilma, transport tarmog'i, hududlararo aloqalar, savdo, logistika, investitsiya, turizm.

ANNOTATION

This article analyzes the role of highways in the economic and social sectors of the Republic of Uzbekistan. The development of road transport infrastructure is considered one of the key factors in expanding domestic and international trade, strengthening interregional connections, and improving the standard of living.

Keywords: Highways, economic development, social infrastructure, transport network, interregional connections, trade, logistics, investment, tourism.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti tarmoqlarining bir maromda faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishida transport kommunikatsiyalarining tutgan o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Respublikada transport tizimiga alohida e'tibor berilishi uning geopolitik jihatdan joylashganligi bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda O'zbekiston dengizga chiqish uchun hech bo'lmaganda ikkita qo'shni davlat hududini kesib o'tishi zarur. Tabiiyki, bu respublikaning iqtisodiy aloqalarini keng miqyosda rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Yuklarning bir necha





mamlakatlar hududidan tranzit holatda o'tishi transport qaramligini kuchaytirib, milliy tovarlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda avtomobil yo'llari iqtisodiyotni rivojlantirishda etakchi o'rinni egallaydi. Avtomobil yo'llari orqali tashiladigan yuklar iqtisodiy tomondan kam xarajatliligi hamda iqtisodiyotni rivojlanishi bilan ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, avtomobil transportiga bo'lgan ehtiyojni keskin suratda oshishiga zamin yaratdi.

Raqobatdoshlik nuqtai nazaridan avtomobil transporti avvalo o'ta tezkorligi va harakatchanligi bilan temir yo'l transportidan ham ustunlik qiladi. Har qanday iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun avtomobil yo'li asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sish, aholi hayotining sifatini oshirish, tuzilmaviy islohotlarni o'tkazish va mamlakat transport tizimini xalqaro transport tizimiga integratsiyalash, respublikaning mudofaa qobiliyatining oshishi, shuningdek tadbirkorlik faoliyati shart-sharoitlarini yaxshilash ko'p jihatdan avtomobil yo'llari tarmog'ining rivojlanish darajasiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish yo'llariga ega emasligiga qaramay uning geografik joylashuvi deyarli barcha yo'nalishlarda yuklar va yo'lovchilarni tranzit tashishni eng qisqa yo'l bilan amalga oshirishga imkon beradi. Respublikaning barcha viloyatlari qo'shni davlatlarga chiqishni ta'minlab beradigan barqaror avtomobil yo'llari aloqasiga ega. Respublika hududi orqali 20 ta xalqaro transport marshrutlari va yo'nalishlari o'tadi, bular: shimoliy va shimoli-g'arbiy yo'nalishda Qozog'iston Respublikasi orqali Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Evropa davlatlariga chiqadigan yo'llar; g'arbiy va janubi-g'arbiy yo'nalishda Turkmaniston Respublikasi orqali Kavkaz, Eron, Turkiya va Evropa davlatlariga chiqadigan yo'llar; janubiy yo'nalishda Afg'oniston, Eron va dengiz portlariga (Choxbahor, Bander Abbos) chiqish yo'li, shuningdek muqobil yo'nalishda Afg'oniston orqali Pokiston va dengiz portlariga (Karachi, Kasim, Gvadar) ga chiqish yo'li; sharqiy yo'nalishda Qirg'iziston Respublikasi orqali Xitoy Xalq Respublikasiga chiqish yo'li. Bu marshrutlar



ko'pi I toifali yo'llar bo'lib, 1 ta tasmasi kengligini boshqa davlatlar yo'llari bilan quyidagi jadvalda solishtirilgan.

Davlat	I toifali yo'llar uchun		
	Hisobiy tezlik, km/s	1 ta tasma kengligi, m	Ajratuvchi tasma kengligi, m
O'zbekiston	120-150	3.75	2.6-6.0
Fransiya	50-110	3.5	3.0-5.0
Germaniya	80-140	3.0-5.0	5.0
AQSh	80-112	3.65	7.2-12.0
Kanada	80-120	3.5-3.7	3.0-5.0

O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti va avtomobil yo'llari sohasidagi 30 dan ortiq xalqaro konventsiyalar, bitimlar va shartnomalarning ishtirokchisi, shuningdek milliy transport kommunikatsiyalarini xalqaro transport tizimiga integratsiyalash va takomillashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilayotgan qator dasturlarning faol qatnashchisi hisoblanadi.

So'nggi yillarda Respublika yo'l kompleksini yanada rivojlanishi uchun Prezidentimiz tomonidan qator farmoyish va qarorlar qabul qilindi. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari to'g'risidagi Qonunni keltirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida" Qonuniga asosan avtomobil yo'li: transport vositalarining harakatlanishiga mo'ljallangan, ularning uzluksiz, belgilangan tezlikda, og'irlikda, gabaritda harakatlanish xavfsizligini ta'minlaydigan muhandislik qurilmalari majmui, shuningdek ushbu majmuini joylashtirishga berilgan er uchastkasi va uning ustidagi o'rnatilgan gabaritdagi havo bo'shlig'idir.

Avtomobil yo'llari tarkibiga yo'l uchun ajratilgan mintaqada joylashgan muhandislik inshootlari, yo'l xizmatining yaxlit texnologik majmuasiga kiruvchi yo'l idoralari, erdamchi, qo'shimcha va boshqa ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar kiradi.





O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari quyidagicha bo'linadi: umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, xo'jalik avtomobil yo'llari, shahar va boshqa aholi punktlari ko'chalari. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ijtimoiy-iqtisodiy o'rni va ma'muriy ahamiyatiga ko'ra xalqaro, davlat, mahalliy avtomobil yo'llariga bo'linadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari 42695 km dan ortiq bo'lib, 3981 km xalqaro ahamiyatdagi, 14100 km davlat ahamiyatdagi, 24614 km mahalliy ahamiyatdagi yo'llardan iborat.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida avtomobil yullarining ahamiyati beqiyos bo'lib, bunda yo'llarni saqlash, ta'mirlash ishlari muhim ahamiyat kasb etadi va bu ishlarni institutda ta'lim olayotgan bo'lg'usi malakali mutaxassislar amalga oshiradi.

Adabiyotlar

1. Автомобил йўллари тўғрисидаги қонун" 2 октябр 2007 йил Тошкент.
2. ШНҚ 2.05.02-07 Автомобиль йўллари. Тошкент 2008 й.

